KADRLAR SALOHIYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Ismayilov Akmal Ziyadillayevich
Sarbon Universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Respublikamiz oliy ta’lim tizimida etishtirilayotgan kadrlar salohiyatini oshirishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o‘quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlangan. Shuningdek, oliy ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan xulosalar tuzishda mavjud bo‘lgan amaliyotni o‘rganish, tizimlashtirish va umumlashtirish orqali ta’lim sohasida nafaqat muhim o‘rin egallashi va qanday shaklda joriy etilishi bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, oliy ta’lim tizimi, zamonaviy ta’lim, raqamli bilimlar, Internet tizimi, masofaviy o‘qitish.

Bugungi kunga kelib butun dunyoda, ya’ni barcha mamlakatlarda hamma sohada raqamli texnologiyalardan fodalanish shiddat bilan rivojlanib borayotganligi hech kimga sir emas. Xususan, bizning yurtimizda ham har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashimiz uchun ham raqamli texnologiyalardan fodalanishimiz zarurligini davrning o‘zi taqozo etmoqda. Shu jihatdan ham qaraganimizda, Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi” [1].

Axborot olish va foydalanish tezligi juda tezlashgan va yiriklashgan hozirgi davrda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish, ta’lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda juda katta ahamiyatga egaligini biz yoshlar sezib, his qilib turibmiz. Hozirgi vaqtda ta’lim sifatini ko‘tarish maqsadida ta’limni raqamlashtirish jarayonlari ketayotganini ta’kidlab o‘tishimiz lozim. Aslida, raqamli texnologiyalar nafaqat ta’lim, balki hayotning barcha jabhalariga kirib borayotgani hech kimga sir emas. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, “Raqamli O‘zbekiston – 2030”, “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida milliy iqtisodiyot, sanoat, ta’lim va umuman jamiyatda raqamli transformatsiyani amalga oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ko‘zda tutilganligini alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozim.

Shuning bilan birgalikda, hozirgi davrda fanlarni zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o‘quvchi va talabalarga interfaol usullar orqali darslarni tashkil etish muhim sanaladi.

Chunki, ta’lim oluvchi biz kabi yoshlar yoshligidan boshlab, texnika vositalari bilan hamohang ravishda o‘sib ulg‘ayib kelmoqdamiz. Biror fanga qiziquvchi yoshlar esa o‘z ustozlaridan ham fanni zamonaviy texnika yutuqlaridan foydalangan holda o‘tishlarini hohlashadi hamda talab etishadi. Umuman olganda, bugungi kunda har bir soha raqobatbardosh mutaxassisi ta’lim berayotgan fanini zamonning ilg‘or texnikaviy vositalaridan va yangiliklardan foydalangan holda darslarni tashkil etishi lozimligini zamonimiz o‘zi talab qilmoqda. [2]

Xuddi biz ham hozirgi kunda ta’lim muassasalarida o‘qitilib kelinayotgan fanlarni ham raqamli formatsiyaga muhtoj deb bilamiz. Biz aytmoqchimizki, har qanday fanlarni o‘qitishda talaba yoshlarni ongiga singdirishda ushbu fanlarning yutuqlarini bugungi kun zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda o‘rganishlari – ya’ni fanlarni o‘qitish, o‘rgatishni modernizatsiya qilish – ushbu fanlarda juda katta inqilob ya’ni o‘zgarish yasaydi deb o‘ylamiz. Albatta bu texnologiyalarni qaysi fanda bo‘lmasin qo‘llash bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan va amalga oshirilmoqda. Bizningcha, har bir fan mutaxassislaridan quyidagi 3 ta muhim narsa talab qilinadi:

1. Sohaviy intellekt. *Ya’ni o‘z sohasini mukammal bilishi.*
2. Zamonaviy texnologiya yutuqlaridan foydalana olishi.
3. Chet tillarini bilishi. *Ya’ni hech bo‘lmaganda birorta chet tilini bilishi.*

Fanlarni o‘qitishda raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish quyidagi afzalliklarga olib keladi deb o‘ylaymiz:

Birinchi navbatda, fanlarning modernizatsiya bo‘lishi tufayli fanlarning rivojlanishi, zamon talablariga javob berishi hamda eng asosiysi, fanlarga bo‘lgan qiziqish yanada ko‘payishiga, fanlarni o‘qitish va o‘rganishning samarali bo‘lishiga;

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalarni qo‘llash natijasida fanlarga doir materiallar hajmining ortishi va shu bilan birga ma’lumotlarni saralash, ulardan fan auditoriyasining bemalol foydalana olish mumkinligi;

Uchinchidan, ilg‘or xorijiy mamlakatlarning raqamli texnologiyalaridan foydalangan holda fanlarni rivojlantirish va boyitish;

To‘rtinchidan, raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali keng auditoriyani jalb qilish, va shu asnosida o‘quvchi yoshlarni ta’li hamda bilim olishlariga erishish;

Beshinchidan, raqamli texnologiyalarni qo‘llash natijasida fanlar bevosita bugungi kun zamon talablari darajasiga javob bergan holda Yangi O‘zbekistonimizni rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Albatta, aslida fanlarni o‘qitishda raqamli texnologiyalardan unumli foydalanishning afzalliklari bundan ham kengdir. Shuni ham ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, bugungi kunda har bir davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari raqamli ta’lim texnologiyalaridan unumli foydalanib kelmoqdalar. Professor-o‘qituvchilar uning imkoniyatlaridan o‘quv jarayonida foydalanib kelayotganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Afsuski bu texnologiyalardan barchamiz ham to‘liq foydalanmaymiz, yoki foydalanishni bilmaymiz. “Ko‘pgina oliy ta’lim tashkilotlari, kursni boshqarish tizimlaridan biri yoki virtual o‘quv muhiti sifatida, ko‘pincha Moodle platformasidan foydalanadilar. Bu veb-dastur bo‘lib, muallifga onlayn kurslarni yaratish imkoniyatini beradi” [3]. Bu Moodle platformasining afzalliklaridan yana biri, masalan, sababli yoki sababsiz bo‘lsin dars mashg‘ulotiga qatnasha olmagan talaba o‘quvchi ushbu platformadan qoldirilgan darsni o‘zlashtirib olishi mumkin. Misol uchun, ma’ruza mavzusi matnini o‘qimasa keyingi sahifasi, o‘z-o‘zini tekshirish savollari, berilgan topshiriqlar ochilmaydi. Qolaversa, dars mashg‘ulotini qoldirgani uchun mavzu yuzasidan tuzilgan testlarni yechishi zarur, yuqoridagi amallarni bajarmasa test ochilmaydi. Berilgan testlardan ham yetarli ballarni to‘play olmasa, mavzu o‘zlashtirilmadi deb belgilanadi. Eng qizig‘i shundaki, bunda inson omili aralashmaydi. O‘ylaymizki, bunday dastur ham o‘qituvchiga yengillik beradi, ham talaba o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirishlari mustahkam bo‘ladi. Zero, qadimgi xitoy faylasufi ta’kidlaganidek, “... mashaqqatga uchraganda ham bilim olishni istamaganlar eng past pog‘onadagi kishilardir” [4].

Raqamlashtirish davrida shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirish va moslashish qobiliyatini rivojlantirishga ko‘proq e’tibor berish zarur deb bilamiz. O‘z mutaxassisligini puxta egallagan

xodim bo‘lishi uchun o‘rganishi zarur bo‘lgan fanlardan materialni o‘zlashtirishini sezilarli darajada chuqurlashtirishiga va kerakli qobiliyatlarni shakllantirishida raqamli texnologiyalar maksimal darajada yordam beradi. Albatta bu yo‘lda bizga sabr-qanoatli, tartibli bo‘lishimiz kerak bo‘ladi. Qadimgi yunon faylasufi Pifagor bu haqda shunday degan edilar, “Tartib sening muqaddas maqsading bo‘lsin. Sen bu maqsad yo‘lida astoydil xizmat qil. Chunki tartib hamma narsaning majmuasidir. Tabiatning mavjudligi asosida ham tartib yotadi” [5].

Shunday qilib, fanlarni o‘qitishda raqamli o‘quv texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchilarga ta’limni raqamlashtirish sharoitida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi va o‘quv jarayoni sifatiga, o‘quvchi va talabalar tomonidan olingan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarning sifatiga, mehnat bozorida kelajakdagi mutaxassislarga bo‘lgan raqobat va talabga albatta o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Fanlarni o‘qitish doirasida raqamli texnologiyalar va vositalardan foydalangan holda o‘quv jarayonini tashkil etishga yuqorida keltirilgan turli xil yondashuvlar o‘qituvchilarga o‘quv mashg‘ulotlarining raqamlashtirish va interaktivlik darajasini oshirish, shuningdek, professional ta’limni tashkil etishda jahon standartlari asosida zamonaviy ta’lim muhitini yaratishda uslubiy yordam bo‘lib xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi. https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25- 01-2020.

2. Ismayilov A.Z. Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va nazorat qilish: muammolar va yechimlar. Ta’limda yangicha yondashuv – innovatsiya sari qo‘yilgan qadam. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami. Qo‘qon – 2024. - 738-741 b.

3. Abdullayev M.Q. Rizayeva F.X. Kasbiy ta’limda gumanitar fanlarni o‘qitish uchun raqamli texnologiyalarni qo‘llash. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2021 yil. - 418 b.

4. Haqiqat manzaralari. 100 mumtoz faylasuf / Taqdirlar, hikmatlar, aforizmlar. -T.: Yangi asr avlodi, 2013. - 36 b.

5. Haqiqat manzaralari. 100 mumtoz faylasuf / Taqdirlar, hikmatlar, aforizmlar. -T.: Yangi asr avlodi, 2013. - 25 b.